

“TASDIQLAYMAN”

**Din ishlari bo'yicha qo'mita
raisi o'rinbosari**


D. Mamadkulov
2025-yil 16-iyun

**Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Jamoatchilik
kengashi yig'ilishining
OCHIQ MULOQOT BAYONI**

2025-yil 16-iyun

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Din ishlari bo'yicha qo'mitasi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi
X. Ishmatbekov

Qatnashdilar:

Qo'mita huzuridagi Jamoatchilik
kengashi a'zolari, O'zbekiston xalqaro
islomshunoslik akademiyasi professor-
o'qituvchilari va talabalar, ommaviy
axborot vositalari vakillari

KUN TARTIBI:

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26-avgustdagi Fuqarolik
jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada
takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-124-son Farmoni
mazmun-mohiyati va ahamiyati, jamoatchilik bilan ishlashdagi yangi
yondashuvlar va unda belgilangan vazifalar to'g'risida**

Jamoatchilik kengashi raisi X. Ishmatbekov — Bugun biz yurtimiz
taraqqiyotida muhim burilish yasovchi, fuqarolik jamiyatining kelajagini belgilab
beruvchi huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil
26-avgustdagi PF-124-sonli Farmoni atrofida fikr almashyapmiz.

Ushbu Farmon oddiy farmon emas. Bu hujjat jamiyat va davlat o'rtasidagi
munosabatlarda yangi bosqich boshlaganini bildiradi. Bu jamiyat davlatdan bir
qadam oldinga chiqayotgan, tashabbus ko'rsatish, islohotlarni qo'llab-
quvvatlashda faol ishtirok etish davri boshlanganining huquqiy belgisidir.

Farmonning dolzarbligi shundaki Bugungi kunda O'zbekiston yangilanish,
ochiqlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Ammo bu yo'lni faqat davlat
organlari yoki hukumat kuchi bilan bosib o'tish mumkin emas. Fuqarolik jamiyati

bu ijtimoiy taraqqiyotning yuragi, milliy g'oyaning tashuvchisi, islohotlarning tabiiy nazoratchisi va takomillashtiruvchisidir.

Ammo uzoq yillar davomida bizda bu institutlar faqat "norasmiy ko'makchi" sifatida qaralgan. Ularning ovozi eshitilmagan, salohiyati to'liq namoyon bo'lmagan. Mana, endi bu o'zgarmoqda deya nutqini tamomladi.

Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari D.Maxsudov — Mazkur Farmon fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha tarixiy qadamdir. Davlat tomonidan NNT va boshqa institutlarga ajratilayotgan grantlar mexanizmi ochiq, shaffof va natijadorlikka asoslangan bo'ladi. Endi faqat loyiha emas, balki tashkilotning umumiy salohiyati ham baholanishini takidladir.

Huquqiy jihatdan Farmon fuqarolik jamiyatining mustaqilligini mustahkamlash bilan birga, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi. Huquqiy kafolatlar kengaytirildi, ayniqsa NNTlar faoliyatiga davlat aralashuvining oldi olindi.

Ushbu Farmonda juda ko'plab yangiliklar o'z aksini topdi. Xususan:

Birinchidan – Fuqarolik jamiyatiga birinchi marta tizimli davlat yordami mexanizmi joriy etildi. Endi NNTlar, jamoatchilik birlashmalari va boshqa fuqarolik institutlari davlat buyurtmasi asosida moliyaviy, texnik va tashkiliy yordam olishi mumkin.

Ikkinchidan – Grantlar va subsidiyalar ajratish mexanizmi ochiq va tanlov asosida bo'ladi. Bu esa korrupsiya, tanish-bilishchilik va norasmiy bosimlarning oldini oladi.

Uchunchidan – Jamoatchilik nazoratiga qonuniy asos berildi. Endi fuqarolar davlat organlarining faoliyatini kuzatish, baholash va ularni isloh qilishga hissa qo'shishi mumkin.

To'rtinchidan – Ijtimoiy buyurtma tizimi joriy etildi. Bu degani, muammoga eng yaqin bo'lgan tashkilot ya'ni jamiyatning o'zi bu muammoni yechish uchun mablag' oladi va mas'uliyatni zimmasiga oladi deya o'z maruzasini tamomladi.

Jamoatchilik kengashi a'zosi Eje Masuleyevich — Avvalo, mana shunday ochiq va samimiy muloqot muhitida birga bo'layotganimiz uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, hukumatimizga va Jamoatchilik kengashiga chuqur minnatdorchiligimni bildiraman.

Men o'zga konfessiya vakili sifatida aytmoqchimanki bugungi yurtimizda turli din va millat vakillarining bemalol, o'z e'tiqodi va qadriyatlariga hurmat bilan yashayotganligi bu katta ne'mat, bu qadrlanishi zarur bo'lgan yutuqdir.

Prezidentimizning ushbu Farmoni bu yurtimizdagi fuqarolik jamiyatining har bir a'zosiga, shu jumladan, diniy va milliy ozchiliklar vakillariga ham teng

imkoniyat beradigan hujjatdir. Bu Farmonning e'tiborli jihatida u nafaqat qonunchilik darajasida fuqarolik institutlarini qo'llab-quvvatlaydi, balki inson qadr-qimmatini, vijdon erkinligi va ijtimoiy birdamlik g'oyalariga asoslanadi deya takidlashni.

Bugun biz musulmoni, xristiani, yahudiy va boshqa e'tiqod sohiblari barcha fuqarolar teng huquqli, teng mas'uliyatli ekanini yana bir bor his etmoqdamiz. Fuqarolik jamiyatining kuchayishi demak bu farq emas, o'xshashliklarga asoslangan jamiyat qurilishi demakdir.

Shu bois, ushbu Farmonni faqat huquqiy hujjat deb emas, insoniylik, bag'rikenglik va hamjihatlik falsafasining ramzi sifatida ko'rishimiz zarur deya so'zini yakunlashni.

Jamoatchilik kengashi a'zosi A.Muxtarov – Avvalo, bugungi ochiq va bahsli muhokama uchun tashakkur bildiraman. Prezidentimiz tomonidan ushbu Farmoni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nafaqat huquqiy, balki axboriy inqilobiy burilish yasovchi hujjatdir, deb bema'lol ayta olamiz.

So'nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlari bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar, bloggerlar, mustaqil axborot agentliklari ham ijtimoiy muhokama va islohotlar vositasiga aylanib bormoqda. Bu esa jamiyat va davlat o'rtasidagi ko'priki endi faqat rasmiy idoralar emas, balki OAV va media maydoni ekanini ko'rsatadi.

Mazkur Farmon fuqarolik institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni belgilarkan, ayni vaqtda media sohasi bilan hamkorlikni kuchaytirish masalasiga alohida urg'u bermoqda.

3 asosiy jihatni alohida ta'kidlamogchiman deya ularni sanab o'tdi:

Birinchidan – OAV va fuqarolik jamiyatining strategik hamkorligi:

Endi jamoatchilik fikrini shakllantirishda nafaqat nodavlat tashkilotlar, balki jurnalistlar, mustaqil bloggerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolik faolligini kuchaytirish imkoni paydo bo'ldi. Farmon orqali bu hamkorlikni ruxsat etilgan emas, targ'ib etiladigan holatga olib chiqyapmiz dedi.

Ikkinchidan – Axborot ochiqligi - ishonch omili:

Farmonda davlat organlari faoliyatining jamoatchilik oldida hisobotdorligi, shaffofligi va OAV bilan ishlash bo'yicha aniq mexanizmlar belgilangan. Bu degani fuqarolik jamiyatining o'zi endi axborot bozorida faol ishtirokchi bo'lishi kerak.

Uchunchidan – Ommaviy axborot vositalari nazorat emas, islohot hamkori:

OAV endi faqat tanqid qiluvchi emas, balki ijtimoiy loyihalarni yorituvchi, rag'batlantiruvchi va fuqarolik tashabbuslarini kuchaytiruvchi vosita sifatida

harakat qilishi kerak. Farmon buni qonuniy asosda qo'llab-quvvatlamoda deya so'zini yakunladi.


Muloqot so'ngida tadbir ishtirokchilari tomonidan mavzuga doir berilgan savollarga kengash a'zolari tomonidan javoblar berildi. Yig'ilishda Farmonning amaliy natijalari, u orqali joriy etilayotgan yangi mexanizmlar va imkoniyatlar haqida chuqur tahliliy fikr almashildi. Takliflar to'plandi va ular asosida kengash tomonidan tavsiyalar shakllantiriladi.

Yig'ilish davomida muhokama qilingan masalalar va maruzalardan kelib chiqib, **Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Jamoatchilik kengashi**

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi kengash raisi X.Ishmatbekov maruzasidagi masalalar ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Kengash huzurida ijtimoiy buyurtma va grantlar ajratish bo'yicha ishchi guruh tuzilsin. Har yili 1 ta ijtimoiy loyihaga tanlov asosida mablag' ajratish tartibi ishlab chiqilsin va e'lon qilinsin (2026-yildan boshlab).
3. Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha maxsus "Ochiq axborot burchagi" yaratiladi va ijtimoiy tarmoqlarda har chorakda ma'lumot joylashtiriladi.
4. 2025-yilning dekabr oyida Farmon ijrosining bir yillik natijalari bo'yicha navbatdagi kengash yig'ilishi tashkil etiladi.

Yig'ilish kotibi



N.Saydullayev

